

“O‘rta Osiyo tarixi” to‘g‘risida

Beshinchi no‘mer “Maorif va o‘qitg‘uvchi” jurnalda Aziz Ubaydulin o‘rtoqning menim “O‘rta Osiyo tarixi” ismli asarim to‘g‘risida tanqid yo‘llu yozilg‘on bir maqolasi ko‘rindi. Bu o‘rtoqning abrod va tanqidlarini xulosa qilg‘onimizad quydag‘i to‘rt moddada yig‘ishqa mumkin bo‘ladi:

Manbalar masalasi.

Marksizm nazariyasining ahamiyatsizligi.

Kapitalizm ta’siridan feodalizm ta’sirining kuchli bo‘lish ehtimoli.

Temur va mo‘g‘ullar.

Bu kunda O‘rta Osiyo tarixi to‘g‘risida maydonida ikki xil manba bor, birisi: arab, fors manba, ikkinchisi o‘shalardan, qisman, yunon va xitoy manbalaridan istifoda qilinib yozilg‘on rus manbalari O‘rta Osiyo tarixini tadqiq qilg‘on kishi, o‘sha manbalardan, shu materiallardan istifoda qilinib yozilg‘on rus manbalari O‘rta Osiyo tarixini tadqiq qilg‘on kishi, o‘sha manbalardan, shu materiallardan istefoda qilmasdan iloji yo‘qdir. Arab, forsyi lisoni bilan tanish odam uchun shubhasiz birinchi manba bo‘lg‘on mazkur tillarda yozilg‘on asarlardir. Umuman Turk xalqi, xususan O‘rta Osiyo tarixi uchun mazkur manbalardan istefoda ылиш birdan bir yo‘ldir. Bu haqda bu kun maydonda g‘oyat ko‘p asarlar bor. Somoniylar, saljuqiylar, xorazmshohlar vaqtida muhim asarlar vujudga kelgani kabi temuriylar vaqtida g‘oyat qiymatdor tarixiy asarlar maydong‘a chiqqandir, o‘zbeklar vaqtida ham muhim asarlar yozilg‘on. Bular o‘lkaning tarixini o‘rganish uchun tarix, bilan ishtig‘ol qilg‘on kishilarga qimmatli materiallardir. Arablar tomonidan yozilg‘on asarlar muhim o‘rin ishg‘ol qiladi. Arab sayyoohlari, jog‘rofiyunlari tomonidan yozilib qoldirilg‘on qiymatli asarlar, O‘rta Osiyoning mozisini o‘rganish uchun g‘oyat nodir manbalardir. Masalan: Istashriy, ibni Havqal, Maqdisiy, YA’qubiy, ibni Xurdabeh, ibnul Asir, ibnu Xaldun kabi olimlarning asarlari bizlar uchun muhim ma’xazlardir. Bular O‘rta Osiyoning faqat shahar hayotin emas, hatto qishloqlar, sug‘orilaturg‘on yerlar, arig‘lar to‘g‘risida ko‘p ma’lumot beradi. Masalan Maqdisi o‘zining “ahsanut taqosim va ma’rifatul aqolim” ismli asarining 261 sahifasidan 353 sahifasiga qadar faqat O‘rta Osiyoni yozadi. Bunda O‘rta Osiyoning shaharlari, qishloqlari, bularning iqtisodiy tomonlari, bu vaqtdag‘i O‘rta Osiyo shaharlarining ishlab chiqazaturg‘on tovar mollari, xarojdan bu o‘lkaga ko‘raturg‘on tovarlar, xaroj, o‘lpon masalalari, qanday pullarni iste’moli, sug‘oraturg‘on arig‘lari, ularning ismlari, shahar va qishloqlar orasidagi masofalari, O‘rta Osiyo xalqlari so‘ylanadi. Va g‘oyat diqqat bilan yozadi. Boshqalari ham qiymatdor ma’lumotlar beradi. Masalan: YOqut Hamaviy “Mo‘jamul buldon” ismli 12 jildlik asarida bu mamlakat to‘g‘risida ko‘p narsalar yozadi. Qanday narsalar o‘sadi, qanday ma’danlar chiqadi, qishloqlarida bozor bormi, yo‘qmi, hammasiga diqqat etadi. Bular hammasi ham buyuk material va muhim manbalardir. YUqorida yozg‘onimiz olimlarning asarlari ko‘p qimmatli ma’lumotlarni joyidir.

Rus manbalariga kelsak, bular orasida eng muhim o‘rin tutg‘oni akademik Bartuld asaridir. O‘rta Osiyog‘a oid eng ko‘p yozuvchi, ko‘p asarlar maydonga keltiruvchi kishi mazkur Bartulddir. Vamberi, Veselovskiy kabi kabi olimlarning

asarlari ham bo‘lsada Bartuldniyi bilan muqayasa qilurliq emasdir. Bular hammasida tarix yozishda, tahlil va tadqiqda tutqon usullari jihatidan emas, balki material bo‘lish yog‘idan ahamiyatlidir. Biz O‘rta Osiyo tarixini yozg‘onda o‘sha manbalardan istefoda qilushg‘a tirishdiq. Arabiy asarlardan: Maqdisi, Istaxriy, ibnu Havqal, Hamdaviy, Forsachadn: Narshaxiy, Ravzatus safo, Habibus siyar, Juvayniy, Zafarnoma, Tazkirai Davlatshoh kabi asarlardan foydalanduq. Bartuldning “Mo‘g‘ullarning hujumi davrida Turkiston” ismli asarining har ikki juzidan va boshqa asarlaridan istefoda qildiq. Muni tariximizning ichida ham ko‘rgazib o‘tdik. Shunday bo‘laturub A.Abdullin o‘rtoqning: asarning birinchi bobida yangi manbalar yo‘q, har yerida Bartuldning “Mo‘g‘ullarning hujumi davrida Turkiston” ismli asarining hidi kelib turadi deyish katta xatodir. Bartuld o‘zining asarida shu arab, fors manbalaridan istefoda etgan. Shuning bilan birga xitoy va arab manbalaridan ham foydalang‘ondir. Bizining istefoda qilg‘onimiz manbalarning birligi bu o‘rtoqning xatolanishig‘a sabab bo‘lg‘on. Shuning bilan birga A.Ubaydulining “umuman arab manbalari, xususan sayyoohlari ko‘proq shaharlari to‘g‘risida yozg‘onlar. Chunki ular shaharni ko‘proq biladilar. Chin ma’nosи bilan hayotning ichiga kira olmaydilar” deyishi mazkur manbalarni tegishincha mutolaa qilmag‘onini ko‘rsatadi. Yo‘qsa munday bir so‘zga jasorat eta olmas edi.

Biz tariximizning 22 sahifasida mazkur YOqut Hamaviyning Mu’jamul buldon ismli asarining Xorazm moddasidan shu so‘zlarni olg‘onmiz Xorazmda yurgan, bu o‘lkani o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan bu kishi mana nima deydi: “Men Xorazmga 616 hijrida keldim, mundan ma’mur bo‘lg‘on hech bir viloyat ko‘rmadim. Bu obodchilig‘i yerining yaxshilik‘indandir. Imoratlar bir-biriga tutashqon, qishloqlar bir-biriga yaqin, sahrodag‘i uylarda saroylar ko‘p. Buluslarida imorati bo‘limg‘on joylar kam uchraydi. Yo‘llarda tut daraxti, terak ko‘p, chunki ipak qurti hamda imorat uchun yog‘och kerakdir. Xalqning ko‘pligidan viloyatlarida yurish bilan bozorlarida yurish orasida farq yo‘qdir (ya’ni xalq zij). Dunyoda Xorazm qadar xalqi ko‘p, va keng bo‘lg‘on yer bor deb o‘ylamayman. Bozorlar, do‘konlar bo‘lg‘on shaharlar ko‘p, bozor bo‘limg‘on qishloq juda sirak, juda kam deb yozadi.

Hamaviyning shu so‘zlari Ubaydulin o‘rtoqning shahardan chiqilmoq bilan feodalizm hukum surar edi, bular chin ma’nosи bilan hayotning ichiga kira olmaydir degan so‘zlarini yo‘qliqqa chiqoradi. Uning taxminlariga qarshi kuchlik bir dalildir. Bu o‘rtoqning hayotning ichiga kira olmaydilar, degan so‘zidan maqsadi, qishloq hayoti bo‘lsa kerak, Hamaviyning yozishida u ochiq suratda bordur. Bu kishi faqat shahardagina emas qishloqlarda ham bo‘lg‘on, o‘sha o‘z ko‘zi bilan ko‘rganligini yozadi. Bu kishi u vaqtdag‘i Xorazm shaharlaridan bo‘lg‘on “Marv” shahrining kutubxonalarida uch yil ishtig‘ol etgan, undagi kutubxonalardan istifoda qilib o‘zining mazkur muhim asarini maydong‘a kelturgon, mo‘g‘ul va uyg‘urlarning tajovuzi vaqtida bu o‘lkani tashlab ketadi. Xorazmda ko‘p yillar turg‘on bundag‘i hayotni ko‘rib bilgan Hamaviydek bir olimning so‘zini e’tiborsiz deb ayta olmaymiz. Balki u vaqtdag‘i xorazmning oynasi bo‘lishig‘a tegishdir. Buning yozishi shahardan chiqmoqliq bilan feodalizmning hukum surmaganligin ochiq ko‘rsatadi.

Ikkinchidan bu o'rtoq: "tabiiy bu o'rinda Soliev o'rtoqqa rus tarix adabiyotida hukum surgan bir tariqat ta'sir qilg'ondir deb aytib bo'lmaydi, lekin buning zarari yo'q. Har holda mundoq nazari ila tarixning shahar hayotini tadqiq qilishg'a yo'l ochdi" deb yozadi.

Bilguli rus tarix adabiyotida bu kunda hukm surgon tariqat shubhasiz marksizmdir. Hammaga ma'lumki tarix yozishda ikki xil usul bordir. Birisi idealizm nuqtasidan yozish va shu nuqtadan tarixni tadqiq etishdir. Bu usul burjuazniy apartunistlar usuli va shuning nazariyasidir.

Ikkinchisi inqilobiy marksizm usulidir, bu bo'lsa, proletariat tushunchasi va uning nazariyasidir.

Bu o'rtoqning yuqoridag'i yozishlaridan inqilobiy marksizm usulidan yiroqlig'i, balki o'shang mayli borlig'i ko'rinish turadi. A.Ubaydulin chin inqilobiy marksizm faqat shahar hayotinigina tadqiq qilga yo'l ochadi, boshqa hech narsaga solih (salohiyatli) emasdir. Na qabilaviy hayot, va na qishloq turmushini tadqiq qila olmag'oni shahardan boshqa hech bir joyda ahamiyatga molik bo'limg'oni, ijtimoiy hayotni tekshirishga yaramag'oni ko'rinish turadi. "Men bu pirinsiplarni qabul qildim" deydi, ammo yuqoridag'i so'zları bilan tamom aksida bo'lg'onini isbot etadi. Shuning bilan birga "muning zarari yo'q" deb bu nazariyani g'oyat g'arib ko'radi. Inqilobiy marksizm usuli bilan yozishning foydasida yo'q, zararida yo'q demakchi bo'ladi. Shubhasiz bu o'rtoq yanglishadi, inqilobiy marksizm faqat tarixdagina emas, adabiyotda, san'atda, ijtimoiy hayotda asos bo'lib xizmat etadi. Faqat shahar hayotini tadqiqqa yaraydi, deyish zo'r xatodir.

Uchinchidan bu o'rtoq feodalizm ta'sirining kuchliligin aytmakchi bo'lub: "somoniyalar, qoraxoniylar, saljuqiylar davri O'rtal Osiyon ham butunlay tijorat kapitalizmi hayot surgan bir xamon deb bo'lmaydi" deydi. Ikkinchisi bir joyda: kapitalizm ta'siridan ko'ra feodalizm t'asiri kuchliroq bo'lg'ondir deb aytishga to'g'ri keladi, deb yozadi.

Biz bu to'g'rida avvalna shuni aytamizkim, somoniyalar, qoraxoniylar, saljuqiylar vaqtida savdo sarmoyasi bo'lg'onlig'ini da'vo qilmadqi, uni isbotiga ham tirishmadiq. Saljuqiylar to'g'risida, bir ikki ta'bir bilan, so'z orasidagina aytib o'tdik. Chunki bizning asarning mundarijasi, maqsad etib tutqoni bularning davrlari emas, balki xorazmshohlar, uyg'urlar, temurlar davridir. Mana uch davrni so'yladik, o'shalarni ochiq suratda ko'rsatdik. Bu o'rtoqning aytgani davrlar bizning kitobning mavzui masalasi emasdir. Ikkinchidan YOqut Hamaviyidan naql qilg'onimizdan tashqari ishtibohi bo'lg'on kishi, Tarixi Narshaxiyga murojaat qilishi zarur.

Mana bu asarning 13 sahifasidan boshlab 25 sahifasiga qadar Buxoro qishloqlari to'g'risida ko'p ma'lumot bor. Narshaxiy, Buxoro qishloqlarining iqtisodiy yoqlarin, bulardagi bozorlarni, ishlab chiqazish ishining qandaylig'in, qanday narsalar to'qulg'onlig'in, bu qishloqlardag'i bozorlar, yarminkalar haqida keng ma'lumot beradi. Bu qishloqlarda to'qulg'on narsalarning Hindiston, Iroq, Misr kabi yiroq o'lkalarga ketganligini, g'oyat maqbul bo'lg'onlig'in ochiq ravishda yozadi. Bular hammasida A.Ubaydulin o'rtoqning "shahardan chiqmoqlik bilan feodalizm hukum suradi" deyishiga qarshi kuchlik

bir vasiqalardir. Narshaxiy Buxoro tarixi to‘risida birdan bir kuchlik manba va ma’xazdir. Agarda bu o‘rtoqning bunga ham e’tiqodi zaif bo‘lsa, u vaqt shunday manbalardan istefoda qilinib yozilg‘on Bartuldning asariga murojaat qilishini so‘rar edik.

Feodalizm ta’sirining kuchli bo‘lg‘onig‘a dalil qilib: “har holda O‘rtal Osiyoda bu zamonda shaharlarning hokimiyatiga qarag‘anda sahroning, og‘uz, qorluq kabi badaviy turk qabilalarining ta’siri ko‘p edi” deydi. Shuning oxirida yo‘q mazkur da’vosiga muxolif bo‘lg‘on quydag‘i so‘zlarni yozadi: “tabiiy ular savdo jarayonining ta’siriga berilganlar edi” deb aytadi. Shahar savdo sarmoyasining qishloq, hatto badaviy xalqlarni o‘z ta’siriga olg‘onini ko‘rsatadi. Demak savdo sarmoyasi qishlqolarda ham kuchlik bo‘lg‘on bo‘ladi. Shuning bilan birga o‘rtoqning hamon O‘rtal Osiyodagi ko‘chmanchilik, muhojirat davrlari bilan shug‘ullangani ko‘rinadi. Ammo bizning savdo kapitalini yozg‘on davrimiz ko‘chmanchiliklardan so‘ngi davrdir. Bularning savdo, tijoratning o‘sishiga mone’ bo‘lg‘on davrlari deb 12 asrning avvalgi yarimlarig‘a qadar bo‘lg‘on vaqtini olishqa mumkin bo‘lsa bo‘lur. Shuni bilish zarurki: bu ko‘chmanchilar biri orqasidan birisi darrav kelib hujum qilib turg‘onlari yo‘q. Har birisining orasida asrlar bilan ayirma bor.

Tukrlar bilan qoraxoniylar, bular bilan qoraxitoylar orasida asrlarcha farq va masofa bordir. Turklar 7 asr milodiyda, qoraxoniylar 10 asrning keyingi yarmida, qoraxitoylar bo‘lsa 12 asrning boshlarida O‘rtal Osiyonidagi istilo qildilar. Bularning istilolari oralarida ikki hatto uch asrlik masofa, va shu qadar ayirma bor. Mana shu asrlar ichida bular nima qilib turg‘onlar? Asrlar bo‘yi savdo kapitalining, madaniy ishlarning o‘sishiga mone’ bo‘lg‘onlarda turg‘onlarmi?

Shubhasiz biz, undoq bir fikrda emasmiz. O‘rtal Osiyo tarixida undoq bir narsa yo‘qdir.

Qoraxoniylar bilan qoraxitoylar orasidagi muddatda saljuqiylar bor. Bular Mavaorixazarning (Xazar dengizi orti - O.Z.) eski xalqlaridir. Bular kuchlik bir davlat tuzgan xalq “Alparslon”, “Malikshoh” vaqtлари, xususan, keyingi zamonida butun musulmon sharqining birlashgan vaqtadir. Mana bunda savdo kapitali juda kuchlik edi. Bizning mavzu masalamiz bularning birisida bo‘limg‘onig‘a, u to‘g‘rida yozmadiq, tahlil qilib turmadiq. Shuni bilish zarurki: qarluq, o‘g‘uz kabi badaviy xalqlarining savdo sarmoyasining o‘sishiga mone’ bo‘lub turg‘onlari yo‘q. Voqe’da qarluqlarning O‘rtal Osiyog‘a tajovuzlari yo‘q, arab istilosi vaqtlaridagina, bularning arablar bilan Farg‘onada chorishqonlari zikr qilinadi, ammo bularning joyi “Chu” daryosining bo‘yi, Yettisuv bukungi Qirg‘isitonning shimoli qismidir. O‘g‘uzlar – saljuqlar bo‘lsa, bular aksincha somonilar davlatining shimol hududida turg‘on soqchilar edi. Somoniylar davlatining obodonlig‘i ko‘p vaqtlar bular saqlab turdilar. Bularning saljuqiylar davlatining boshlanishi va bitgan vaqtlaridagi ina Xurosonda oz-moz to‘polonlari bor. Bularni misol o‘rnig‘a qoraxoniylar, qoraxitoylarni olg‘onda bir qadar isbot etgan bo‘lar edi.

Bu o‘rtoq saljuq burjuaziyasi degan ta’birdan shubhalanadi, saljuqiylar ot ustidan tushgon emas, mamlakatni ot ustida turub idora qilg‘on. O‘troqliq, tijorat va sanoat bularg‘a g‘arib bo‘lg‘on deb xiyol qila turg‘onig‘a o‘xshaydi. Bunday

fikrni mustashriqlar, turkologlar bu zamong‘a qadar so‘ylab keldilar va hamonda so‘ylamakdadirlar. Ular turkiy xalq madaniyat asari bo‘lg‘on narsadan yiroq, ko‘chmanchi, vaxshiy deb tasvir etadilar. O‘rta Osiyoda bo‘lg‘on butun madaniyat asarlarini faqat forsiylarg‘a isnod qiladilar, turkiy xalqlar bo‘lsa mana shu madaniyatni bir uchigina bo‘lub ko‘rinadi.

Bizning yuqoridag‘i saljuq burjuaziyasi degan ta’birimizdan, ularning qo‘l ostidag‘i xalqlar murod bo‘lg‘oni kabi qisman o‘sha saljuqiylarning o‘zлari ham muroddir. Shuning bilan birga “Sanjar sulton edi, xalifa tomnidan bu laqab berilgan edi” degan hech bir o‘rni bo‘lmag‘on, doxiliy yo‘q jumlalar bor. Oning sultonlig‘i bilan bizning ishmiz yo‘q, luzumi ham yo‘q, uning sultonlig‘ig‘a taarruzimiz bo‘lmag‘oni kabi, undan bahs ham etmadik. Bartuld, Sanjar ko‘chmanchilarga istinod qilib harakat qildi, degan ekan, buni inkor qilg‘on kishi yo‘q, shuning bilan birga bir Sanjar emas, balki boshqa amir va xonlarda ham shu bordir. O‘rta Osiyoda tuzilgon amir va xalqlarning hammasida ham shu ko‘chmanchilarga istisnod qilish bor. Buni xorazmshohlar qismida ochiq suratda yozg‘onmiz. Sanjar qo‘li ostida ko‘chmanchilar bo‘lishidan saljuqiylarning askari bir xalq ekani anglashilmaydi va muddaoni hech bir isbot etmaydi.

To‘rtinchidan mo‘g‘ullarning madaniyatsizligi to‘g‘risida o‘zbek tarixchisi Abulg‘ози Bahodirga, va Plon Karpin, Rubrukiuslarga ishong‘usi kelmaydi. Abulg‘ози 17 asrda yozg‘on, shuning uchun 12 asr mo‘g‘ullari to‘g‘risida avtoritetli bo‘la olmaydi. Keyingilar bo‘lsa Yevropa bilan qiyos qiladilar, shuning uchun avtoritetli bo‘lmaydi. Endi kimning so‘ziga ishonamiz? 20 asrning 27 yilida yozg‘on bu o‘rtoqning so‘ziga ishonamizmi? Chingizning nabirasi bo‘lg‘on Kuyukxon xuzurig‘a yozg‘on, mo‘g‘ullarning eng shavkatli vaqtlarida o‘z ko‘zлari bilan ko‘rgan “Plon Karpin”lar hamda muhim manbalardan istifoda qilib tarixni yozg‘on o‘zbek muarixi Abulg‘ози Bahodirning so‘zi avtoritetli bo‘lmaydida, sizning kabilarning avtoriteti bo‘ladimi? Xo‘b, ularning so‘zi avtoritetli bo‘lmasin, bu o‘rtoq albatta “Bartuld”ga ishonadur, unga ehtiyozi yo‘q “Mo‘g‘ullarning hujumi davrida Turkiston” ismli 416 sahifasida mo‘g‘ullarning madaniyatsizligi to‘g‘risida mana nima deydi: Chingizning mo‘g‘ullari madaniyatning g‘oyat tuban darajasida edi, hatto o‘zlarining qardosh qabilasi bo‘lg‘on nayman bilan karayitlarga nisbatan ham tuban edi” deydi. “Ulug‘bek ham aning zamoni” ismli asarning 4 sahifasida: “Chingizzonning harbiy muvaffaqiyati, uni o‘g‘rilar atamani bo‘lishdan chiqarib dunyoda ulug‘ bir davlatga ega qildi” deydi.

Bartuldning asarini albatta avtoritet bo‘la olmaydi, deb ayta olmas deb o‘layman. Bartuldning yozishidan mo‘g‘ullarning madaniyatsizligi, bularning boshlig‘i bo‘lg‘on Chingizning o‘g‘rilar boshlig‘i bo‘lg‘onlig‘i ochiq ko‘rinmaydimi?

YUqoridag‘i asarning 499 sahifasining hoshiyasida “Tarixi oli saljuq”dan ko‘chirilgan “doim ko‘chadilar o‘rtoq o‘lmaylar” degan jumlalar bor. Mana muni oli saljuq Chingizning mo‘g‘ullar to‘g‘rsida yasog‘i deb yozadi. Demak ko‘chmanchi bo‘lib kelgan, ko‘chmanchi bo‘lub yashashg‘a tegish. O‘sha yozg‘onlarimizdan mo‘g‘ullarning qanday darajada madaniyatdan yiroq ekani ro‘shan emasmi?

Mo‘g‘ullar mamlakatida musulmonlarning xizmati ulug‘ bo‘lg‘onlig‘i, bu o‘lkani tartibga keltiruvchi va ta‘mir qiluvchi Mahmud va Mas‘ud Y Alavoch, Habash Amid va boshqalarning xizmatlari va boshqalarning xizmatlari buyuk ekanini ayrim va ochiq suratda so‘ylaganimiz, shunday bo‘la turub bu o‘rtoqning: mo‘g‘ul mamlakatida musulmonlarning ro‘llari katta va ulug‘ mansab sohibi bo‘lg‘onliqlarini xotirdan chiqarmoq xatodir” deydi. Shuning bilan bu o‘rtoqning O‘rtta Osiyo tarixini e’tiborsiz o‘qug‘oni ko‘rinib turadi.

Mo‘g‘ullarda xalq ko‘paygan, ko‘p xalq chiqqan Chingiz futuhotiga shuning ta’siri bo‘lg‘on, deb aytmakchi bo‘ladi. Lekin biz mo‘g‘ullarda buning sabab bo‘la olmag‘onini O‘rtta Osiyo tarixida ochiq suratda so‘ylaganmiz. Shuning bilan birga yana aytamizkim Mong‘o‘liyada xalq ko‘paygan emas. Chunki xalqning ko‘payishi uchun istihsolot kuchining muayyan miqdorda o‘sishi, ortishi lozim. Bir joyda o‘sha kuchning o‘sishi, ko‘payishi nisbatida xalq o‘s, ko‘payadir. Ammo Mong‘uliyada bo‘lsa, munday bir kuch yo‘qdir, muni yuqorida so‘yladik. Ko‘chmanchilikdan o‘tmagan, qisman hayotning birinchi bosqichida turg‘on, mo‘g‘ullarda munday kuchning bo‘lishi shubhasiz yiroq, shundoq ham bo‘lsa, Bartuldning “Ulug‘bek ham aning zamoni” degani asarining 4 sahifasidan mo‘g‘ullar to‘g‘risida shu satrlarni ko‘chiramiz: “adad jihatidan oz, yangi birlar zabit qilishg‘a ehtiyoji bo‘lg‘on bir xalq, shunday mustasno natijalarga muvaffaq bo‘ldilar. Eski fors davlatidagi kabi xalqning kuchliligi “podavlyayushim bolshinstvom” o‘z yerlarida qoldilar” ya’ni mo‘g‘ulustondan qo‘zg‘almadilar deydi.

Mo‘g‘ullar tarixini yaxshi biluvchi “Bartuld”ning shu so‘zлари, bizning mo‘g‘ullar to‘g‘risidagi da‘vomizni, ularning ko‘p xalq emasligin quvvatlamaydimi? Shuning bilan birga son jihatidan oz bo‘lg‘on bir xalqning ham ozg‘ina qismining shu qadar keng o‘lkalar zabit qilishi mumkin emasmi? Mana shu ozg‘ina bo‘lg‘on xalqni yetaklab, xorijga chiqaruvchi, madaniy ellarga hokim qildiruvchi xalq uyg‘ur sarmoyasi deganmiz.

Temur to‘g‘risiga kelganda, buning shariatga, Chingizning yasosini ortuq ko‘rganini asarimizda turli dalillar bilan so‘ylab o‘tganmiz. Bu o‘rtoq faqat sochi uzun chig‘atoylilar sanam (but)ga ibodat qiluvchilarnigina ko‘radi. Xorazmliklarning Temur o‘lkasini “dorul kufr” deyishi, Temurning nabirasining mo‘g‘ul qiyofatida yurushi, Temurning otasining Temurga: “qabilangni, nasli, nasabingni unutma” deb tavsiyasi, Temurning davlatida qanday ta’sir hukum surganini ko‘rsatmaydimi? Temurning shariat din so‘zlarini so‘ylashi, islomiyat uchun kurashganligini aytishi, ko‘pincha boshlab maydong‘a chiqqon vaqtidadir. U vaqtda unday bir da‘voda bo‘lmasdan iloji yo‘q ham yo‘qdir. O‘zining ahvolini tuzatish, mustahkam qilish uchun shubhasiz shunday bir da‘voda bo‘lg‘ondir. A.Ubaydulin o‘rtoq o‘zi ham: Temur barlos kabi turk qabilasidan chiqqan bir zot bo‘lg‘onig‘a, unga bu xalqning odat huquqi yaqin edi. Ammo ul islomiyat asosida jahon imperiyasin yasashg‘a tilaganiga shariatdan ham qocha olmaydir edi” deydir. Bu so‘zi bilan qabilaviy traditsiyaning ta’siri kuchli bo‘lg‘onini aytmakchi bo‘ladi. Biz ham o‘shani aytishga tilaganmiz.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki: O‘rtoq A.Ubaydulining e’tirozlari bizning maqsad etib olg‘on xorazmshohlar, uyg‘urlar, temurlar vaqtidag‘i savdo

sarmoyasiga oid emas, balki, ulardan muqaddamgi davrlar to‘g‘risidadir, biz ba’zi bir erodlarig‘a to‘xtalib turmadiq, balki muhimroq ko‘rilgani to‘g‘rilaridagina izohot berish bilan kifoyalandiq.

Po‘lat Soliev. Samarqand.

Po‘lat Soliyev.

“*Maorif va o‘qituvchi*” jurnali. 1927 yil, 6 son.

(O.Z.)